

20-Aprel, 2025-yil

**NUTQ RIVOJLANISHIDA LOGOPEDIK-INTERFAOL YONDASHUV:
ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR MISOLIDA**

Jalilova Salomat Shokir qizi
Buxoro innovatsiyalar universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishda logopedik-interfaol yondashuvning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Muallif logopedik mashg‘ulotlarni interfaol texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali bolalarning lingvistik, fonetik va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qiladi. Amaliy kuzatuvlar asosida bu yondashuvning samaradorligi, ayniqsa, dars jarayonida muloqotga kirishish, nutqni faollashtirish, so‘z boyligini kengaytirish va psixologik moslashuvda sezilarli natijalar berishi isbotlangan. Maqolada ta’limda individual yondashuvning ahamiyati, ko‘p sensorli stimullardan foydalanish, multimodal materiallar bilan ishslash va ota-onalar bilan hamkorlikning nutq rivojiga ta’siri ilmiy-nazariy asoslangan.

Kalit so‘zlar: logopediya, interfaol yondashuv, eshitishida nuqson, nutq rivoji, fonematik eshituv, multimodal metodika, lingvistik faollik, kommunikativ kompetensiya, defektologik yordam, inklyuziv ta’lim.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni, xususan, logopedik-interfaol metodlarni keng qo‘llashni taqozo etadi. Chunki nutqiy cheklovga ega bo‘lgan bolalar odatiy dars shakllarida passiv ishtirok etishi, til materiallarini yetarli darajada o‘zlashtirmasligi, emotsiyal va ijtimoiy muvofiqlikda muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Aynan shu nuqtai nazardan, interfaol ta’lim texnologiyalarini logopedik metodlar bilan uyg‘unlashtirish orqali mazkur muammolarni bartaraf etish mumkin.

Logopedik-interfaol yondashuv deganda, logopedik mashg‘ulotlar davomida o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlovchi, multimodal va muloqotga asoslangan metodlar majmuasi tushuniladi. Bu yondashuv doirasida o‘qituvchi bolani tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida nutqiy faoliyatga jalg etadi. Har bir mashg‘ulotda bolaning eshitish, ko‘rish, harakatlansh va emotsiyal-hissiy idrok kanallari faollashtiriladi.

Amaliy kuzatuvlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun logopedik-interfaol mashg‘ulotlar nafaqat nutqni yaxshilaydi, balki ularning

20-Aprel, 2025-yil

o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Xususan, so‘z boyligi sezilarli darajada kengayadi, fonematik eshituv aniqligi oshadi, gap tuzish ko‘nikmasi faollashadi. Ushbu yondashuvda dialogik mashqlar, rolli o‘yinlar, multimedaviy dasturlar, virtual stimullar, audio-vizual treninglar asosiy o‘rinni egallaydi.

Logopedik-interfaol mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning faolligini ta’minlovchi motivatsion muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mashg‘ulotlarni o‘yin asosida tashkil etish – ya’ni, nutqni faollashtirish uchun ssenariyli vazifalar, qiziqarli rolli harakatlar, virtual personajlar ishtirokidagi topshiriqlar – bolalarning ishtirokini oshiradi. Masalan, “Gapni tugat” yoki “Xato top” kabi interfaol mashqlar orqali bola so‘zlarning ma’nosini nafaqat idrok etadi, balki ularni kontekstda qo‘llashni ham o‘rganadi. Bu esa uning real hayotiy muloqotga tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, interfaol yondashuvda sinfdagi muloqot madaniyatini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Logopedik mashg‘ulotlar faqat muayyan tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish emas, balki suhbatda navbat kutish, savol-javobda qatnashish, boshqa bolalarni tinglash, fikr bildirish kabi ijtimoiy-kommunikativ qoidalarni o‘rgatishga xizmat qiladi. Bu esa eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola uchun jamiyatga moslashuv jarayonini yengillashtiradi.

Metodik jihatdan qaralganda, bu yondashuv o‘z ichiga ko‘p sensorli o‘rganish tamoyilini qamrab oladi. Har bir bola eshitish bilan bog‘liq qiyinchilikni boshqa sezgi orqali qoplashga harakat qiladi: vizual tasvir, harakat, jismoniy aloqa va mimika orqali. Masalan, so‘z ma’nosini rasmga bog‘lash, jest orqali izohlash, harakat orqali ifodalash orqali o‘rgatish jarayoni logopedik-interfaol mashg‘ulotlarning ustunligidir.

Bundan tashqari, ushbu yondashuvni milliy ta’lim tizimiga integratsiyalash bo‘yicha ham muhim takliflar mavjud. Ayni vaqtida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi maxsus ta’lim bo‘yicha normativ hujjatlar asosida logopedik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va ularni zamonaviy interfaol metodlar bilan boyitish zarurati mavjud. Shu asosda logoped o‘qituvchilarni zamonaviy metodikalarga o‘qitish, ularni amaliy tajribalar asosida malaka oshirish, dars senariylarini multimedaviy formatda ishlab chiqish milliy darajadagi yondashuvni takomillashtiradi.

Shuningdek, logopedik-interfaol yondashuvda bolalar o‘zlarini uchun qulay va erkin muhitda o‘qiydilar. Bu holat ularning psixologik holatini barqarorlashtiradi va stressni kamaytiradi. Chunki eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘pincha ichki tortinchoqlik, muloqotdan chekinish holatlari kuzatiladi. Interfaol metodlar esa bu muammoni engillashtiradi. Masalan, QR-kodli topshiriqlar, ovozli kartalar, “gapni tugat” o‘yinlari, “tanish fazo” mashqlari orqali bola o‘zi mustaqil muloqot qurishga intiladi.

20-Aprel, 2025-yil

Bu yondashuv doirasida logoped bilan bolaning o‘zaro aloqasi interaktiv asosda quriladi. Darslar frontalligidan chekiniladi, ya’ni faqat ko‘rsatma beruvchi o‘qituvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida bolaning ham ovozi muhim sanaladi. Darslar davomida bolaning fikrini ifoda etishga, ifodali nutq yaratishga undash asosiy maqsad qilib olinadi. Bu orqali lingvistik va grammatik kompetensiyalar tabiiy va jarayonli rivojlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘p hollarda fonematik farqlash, bog‘lovchi so‘zlardan foydalanish, intonatsion ohangni saqlashda qiyinchiliklar bo‘ladi. Logopedik-interfaol mashg‘ulotlarda esa bu ko‘nikmalar kichik hikoya tuzish, gapni to‘ldirish, fe’llarni moslashtirish orqali takomillashtiriladi. Ayniqsa, elektron qurilmalardan foydalanish (masalan, planshetlar, interaktiv doska, ovoz tanlovli testlar) bolalarning nutqiy jarayonini tezlashtiradi va ular uchun motivatsion muhit yaratadi.

Logopedik-interfaol yondashuvning samarali ishlashi uchun metodik tayyorgarlik, maxsus mashg‘ulot senariylari, audio-matnlar to‘plami, rasmli so‘zkartochkalar, qisqa animatsion topshiriqlar tayyorlangan bo‘lishi lozim. Ota-onalar bilan birgalikda bajariladigan “uy mashg‘ulotlari” ham bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki bolalar nutqiy faoliyatda ko‘proq doimiy mashq va ijobiy muhitga muhtojdirlar.

Yana bir muhim jihat – har bir bola uchun individual rivojlanish xarитаси (IRX) asosida harakat qilishdir. Har bir bolaning so‘z boyligi, fonetik rivoji, grammatik egallashi, ijtimoiy muloqotga kirishishi bo‘yicha boshlang‘ich diagnostika natijalari asosida logopedik-interfaol yondashuv shakllantiriladi. Bu har bir bolaning real ehtiyojlariga mos keluvchi mashg‘ulotlarni tanlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, logopedik-interfaol yondashuv eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishda zamonaviy va samarali metod sifatida alohida o‘ringa ega. Bu yondashuv nafaqat lingvistik qobiliyatlarni o‘siradi, balki bolaning o‘zini anglashiga, muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yondashuvni tizimli va metodik asosda umumiy ta’lim muassasalariga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmonova S.R. “Maxsus pedagogikaning nazariy asoslari”. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Marschark M., Spencer P.E. “Deaf Cognition: Foundations and Outcomes”. – Oxford University Press, 2006.
3. Qodirova D. “Inklyuziv ta’limda logopedik yondashuvlar”. – Andijon, 2022.

20-Aprel, 2025-yil

4. Petrova V.G. “Интерактивные методы в логопедической практике”. – Moskva: Logos, 2019.
5. To‘xtayeva Z. “Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirish”. – Samarqand, 2018.
6. UNESCO. “Inclusive Education: Guidelines for Inclusion”. – Paris, 2020.
7. WHO. “Deafness and hearing loss”. – Geneva, 2023.
8. Sokolova E. “Психолого-педагогические технологии коррекционного обучения”. – Moskva, 2015.

